

**TARBIYAVIY ISHLAR ORQALI URF-ODATLARINI
SHAKLLANTIRISH**

Tursunboyeva Nozima Sayfullayevna

Namangan Davlat Pedagogika institutida

Ijtimoiy ish yo`nalishi talabasi

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishda mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilimlar bilan Uning ta'limda qanday farqli tomonlari mavjud? "Tarbiyaviy ishlar metodikasi"fanining predmeti kasb-hunar maktablari, akademik litseylarda ta'limtarbiya oladigan o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga oid nazariy bilimlar va ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir qurollantirish bo'lsa, tarbiya yoshlarning jamiyatimizning qonunlariga javob bera oladigan e'tiqodini, axloqiy tushuncha va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishda muhimdir.

Abdulla Avloninyning «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham bir biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog'langan kabitur» deb ta'kidlashi bejiz emas. Ma'lum bo'ladiki, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko'ra tarbiyalab, bilim berish bo'lmog'i lozim.

Bu fanning maqsadi, ta'lim muassasasilari o'quvchilariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lgan, bunda boy qadriyatlarimizdan keng va oladigan zarur metodlarini tanlab bilishga qodir bo'lgan pedagoglarni tayyorlashdan iboratdir. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asosiy berilgan vositalari shakllari metodlarini qo'llanishi bilan ajralib turgan. Umumta'lim maktablari shaxsini davr talabiga javob bera oladigan darajada tarkib toptirishga erishish imkonini beradigan, biror bir salbiy jihatning oldini oladigan tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda tashkil etish asoslarini ishlab chiqish kabilar tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining muhim maqsadi va vazifalari sanaladi.

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z Vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yo shlar davlatimizning kelajagidir. Bunda uslubiyot tarbiya nazariyasining umumiyligini qoidalariga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro'yobga chiqarish usullarining vositalari, yo'llari va shakllaridan iborat bo'lishi lozim. Tarbiyaviy ish metodikasini o'rGANISH talabalarni tarbiyalashning umumiyligini mustaqil, ijodiy va dadil hal

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

qilishga tayyorlashi lozim. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining bosh maqsadi yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, ma‘naviy-tarixiy an‘analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, amalda joriy etishdir. Mazkur “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” ham aynan ushbu qarorga asosoan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo’lgan barcha g’oyalar qayta dan ko’rib chiqilishi, asosiy e’tibor shaxsga qaratilishi, yillar davomida to’plangan ijobjiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi pedagogika fanining bir qismi bo’lib, fan sifatida ajralib chiqdi va o’zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bir necha qismga bo’lib o’rganiladi. Bular quyidagilardir:

- Tarbiya fanini o’qitish metodikasi,
- Jamoani tashkil qilish metodikasi,

-Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarini tashkil etish metodikasi hamda -Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish metodikasi va hakozolar.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining asosiy vazifasi esa shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko’maklashish, o’z – o’zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o’z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg’otish; talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo’lgan talablarni shakllantirish, malaka hosil qildirish, ularni tobora o’stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish; har bir o’smirning bilim olish qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko’rish; insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir –birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo’l qo’ymaslik), muomala odobi kabi tarbiya vositalaridan kengroq foydalanish:tarbiyada tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olinishi, har bir shaxs, o’smir va yosh yigit-qizning betakror va o’ziga xosligini e’tiborga olish;amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksizligiga hamda turli yoshdagagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish: o’smir yigit va qizlar nafaqat bo’lg’usi katta hayotga tayyorgarlik ko’radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar, shu bois ularni aniq hayotga tayyorlash kabilar. Demak, bu fanni o’qitishdan maqsad, kelajakda talabalarga ta’lim muassasalarida ta’lim – tarbiyaga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashishni, ishni sifat, mazmun jihatdan to’g’ri tashkil etishni o’rgatishdan iboratdir. Abdulla Avloniy —Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat masalasidir! deya ta’kidlaganida qanchalik haqli ekanligini, hayotning o’zi isbotlab turibdi. Tarbiyaning eng muhim vazifikasi yosh avlodda mustahkam e’tiqod hamda ularga asoslangan ma‘naviy xulqatvorni xosil qilishdir. Bu vazifani shaxsni faol va muayyan maqsadni ko’zlagan holda tarkib

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

toptirishning psixolok qonuniyatlarini, axloqiy taraqqiyot qonuniyatlarini umumiyligi va o'ziga xos yakka psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda to'g'ri hal etish mumkin. O'quv jarayonini boshqarish nisbatan oson. Uning natijalari darhol namoyon bo'ladi va ularni tekshirish mumkin. Tarbiya haqida esa bu fikrni aytish mumkin emas. O'quvchining o'sishi va tarbiya olishi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi, ijtimoiy foydali mehnat, ijtimoiy ishlari, o'yin va o'qish faoliyati, bo'sh vaqtadan oqilona foydalanish kabilalar o'quvchilarning hayotida katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'quvchilarning xil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish, uni shaxs sifatida alohida sifatlari, xarakter xislatlari, odatlarni tarkib toptirishga e'tibor yaratish tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida^{llgi} qonuni oila, davlat oldidagi mas'uliyatini anglab etadigan, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantiruvchi, intellektual va ilmiy kuchlarni taraqqiy ettiruvchi yuksak talablarni belgilab beradi. Ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish, intellektual va ma'naviy kuchlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga molikligi qayd etib o'tildi. Bugungi kunda shunchaki, bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iqtidori bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon talabidir.


Bakalavr pedagoglarni yetishtirib berishda tarbiyaviy ishlarni pedagogikasi yuqorida ta'idlab o'tilgan vazifalar bilan birga quyidagi mqsadlarni ham amalga oshiradi:

1. Bo'lajak pedagoglarda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishga oid nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikmalar, malakalarni tarkib toptirish;
2. O'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashda jamiyatimizda qabul qilingan axloqodob mezonlariga mos keladigan axloqiy malakalarni shakllantirish.

Tarbiya va uni amalga oshirish muammosi barcha zamonlarda ham dolzarb bo'lib kelgan. Chunki jamiyatning qay darajada taraqqiy etganligi shu jamiyatda yashayotgan odamlarning ma'naviy saviyasi bilan o'lchanadi. Talabalar shaxsini kamolga yetkazish, ma'naviy boylikni, axloqiy komillikni, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan, jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi yoshlarni tarbiyalashni taqazo etadi. Bo'lajak pedagoglar, murabbiylar birinchi navbatda tarbiyachi va jamiyat siyosatini hamda mafkurasini yoshlar ongiga yetkazuvchi asosiy shaxs bo'lganligi bois, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va mohiyatini yana bir bor chuqur tahlil o'rghanish zarur. Har qanday mamlakatning kuchi fuqarolarning ma'naviy yetukligidadir. Intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmunini shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun moddiy va ma'anaviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish va rivojlangan huquqiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslashish;

-kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagog faoliyatining nufuzi va ijtimoiy mavqeini ko'tarish;

-ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va amalda joriy etish;



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

-ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va muassasani akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini joriy etish;

-kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar. qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiradi. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis milliy model mohiyatini to'laqonli ifoda etadi. Bugungi kunda ta'lim – tarbiya jarayonida shunday islohatlar amalga oshirilmoqdaki uni ko'z bilan ko'rib qalb bilan his etish kerak. O'sib, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, bugungi kunning yoshlari ertangi kun davlatimizni ravnaqiga xizmat qiladigan uning buyukligini yanada yuqoriga ko'taradigan, ota-bobolarimiz tomonidan bizlarga qoldirgan ulkan boy ma'naviy merosini boyitib, sayqal berib, takomillashtirib kelgusi avlodlarga yetkazib beradigan shaxs qilib tarbiyalash kerak.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, shaxs qilib voyaga yetkazishda eng muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham biz milliy – ma'naviy qadriyatlarnimizni odobnama darslari orqali o'quvchilar ongiga singdirishimiz o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrlarni olg'a surib, undan keng foydalanishimiz lozimligini ta'kidlaymiz.

Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intelektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omiliardan biri bo'lib bo'lmoqda.

"Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rinnegallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq" (O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev)

Bugungi kunda ta'lim sifatlarini oshirish va ta'lim sohasini yanada rivojlantirish barcha pedagoglar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya masalalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini olib kirish orqali o'quvchilar bilimini yanada rivojlantirish ularning dunyoqarashini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Boshlang'ich ta'lim – ta'lim va tarbiyaning bosh poydevoridir. Ushbu poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa imorat shunchalik mustahkam bo'lgandek, mukammal

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

boshlang'ich ta'lim bilimlariga ega bo'lgan o'quvchilar kelgusida yuqori sinflarda hech qynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladilar.

Tarbiyaviy tadbirlar orqali ular ongida kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy kadriyatlargacha asoslangan yuksak manaviy axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o'z vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim."Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "madaniy, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'naliishlarda maktabdan tashkari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish" ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yaxshilash, uning tuzilmasi va mazmun - mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy tarixiy an'analariga, urf odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Boshlangich ta'lim muassasalarida tarbiyaviy tadbirlarni olib borishning bugungi kunda ijobiy tomonlari shundaki o'quvchi yoshlarni ongini, ma'naviyatini, yuksak saloxiyatini yuksaltirishda, barkamol avlodni milliy- ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustivorligi ta'minlanadi. Umumiyligi hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib va rivojlantirilib borilmoqda.

Mamlakatimizda chuqur va keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda.Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutib bormoqda. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish - davlat siyosatining ustivor yunalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistan Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1999 yil 3 sentabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab quvvatlash to'grisida"gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatining ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi. Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator qaror va qonunlar, me'yoriy xujjatlar , jumladan O'zbekiston Respublikasi ning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ", bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, maxalla va maktab nufuzini yanada yukori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

O'quvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyaviy tadbirlar orqali takomillashtirish muammolari O.Abduquddusov, N. Amatov, Yu.K.Vasiliev, K.D.Davlatov, L.T.Mag'zumov, U.N.Nishonaliev, A.R.Xujaboev, N.Sh.Shodiev, E.T.Choriev va boshka olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish va boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda uni tarbiyaviy axamiyatini o'quvchilarni, axloqiy fazilatlarini shakllantirish-pedagogik, mafkuraviy, g'oyaviy muammo sifatida axloqiy tarbiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ishlab chiqilgan. Ta'lim – tarbiya

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

jarayonida yosh avlodni tabiat qonun-qoidalari va ijtimoiy qonuniyatlar zamirida tarbiyalash orqali shubhasiz sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yosh avlodda sog'lom turmush tarzini shakllantrishda ularga davlat va jamiyatga ongli munosabatda bo'lishiga orqali ibrat – namuna tizimiga alohida e'tiborni qaratish sog'lom turmush tarziga kompleks yondashuvni anglatadi va u o'z ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Ulug' shoirimiz buyuk mutafakkir movlono Furqat ilim-ma'rifatni ko'ngillarning sururi, ko'rар ko'zlarning nuri deb ta'riflagan.

Ma'lumki, xalqimizning eng mo'tabar va mas'uliyatli mashg'ulotlaridan biri tarbiyadir. Mustaqillikka erishilgach, yoshlarda ong va milliy tafakkurini shakllantirish, ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajaga ko'tarishga alohida e'tibor berila boshlandi. Zero, bu muhim vazifa faqat ma'naviy-axloqiy tarbiya orqali hal qilinishi mumkin. Inson ma'naviyati va ma'rifati, aql-zakovati, yuksak axloq – odobi, serqirra iqtidori, salohiyati, diyonati, jasorati va shu kabilar tarbiya mahsulidir. Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulqatvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obhektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidur»¹⁰³. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xussiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tavallud, Beshik, Alla udumlari. Tavallud topgan bolaning qulog'iga otabobolarimiz avval mulla chaqirib azon aytirganlar. Azon aytulganda bolaning qulog'i ochilgan. ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iga singdirilgan. So'ng ularning chillasi-kichik chilla va katta chilla o'tkaziladi. qirq kunlik katta chillasi chiqqandan so'ng beshikka belash marosimi o'tkaziladi. Tavallud topgan bosh farzand bhlsa, bozordan beshik sotib olinadi. Beshik ajdodlarimiz kashfiyotlari orasida aloxida o'rin tutadi. Beshik yasash aloxida sanoat darajasiga ko'tarilgan.

Bola bor joyda alla aytiglihi tabiiy. Onalar qadimdan o'z bolalari tepasida kechakunduz alla aytib kelishgan. Alla insonda, ong qatlamlarida bir umr mungli, xazin, nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri yusushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi

¹⁰³ Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

omillarning (xoh salbiy, xoh ijobjiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyuştirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulhiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi ehtibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirishda dastlab ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali mazkur qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar tarkibiga kiruvchi milliy urf-odatlar, an'ana va udumlar, bayram va marosimlar avlodlar kamolotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalqimiz asrlar davomida shu qadriyatlarga sodiq qolgan, ulardan farzandlar tarbiyasida foydalana olgan.

Istiqlol tantanasi bilan bugungi kunda barkamol avlodni asrlar osha sayqal topgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash, madaniy merosimiz, ma'naviy boyligimizni har tomonlama o'rganib, ta'lim-tarbiya sohasida qo'llashga keng imkoniyatlar yaratildi. Yurtboshimiz I.A.Karimov: —Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, xuquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak¹⁰⁴ - deb ta'kidlaydi. Urf-odatlar, islom dini bilan bog'liq rasm-rusumlar, xalqona udumlar, marosimlar, an'analar xalq ijtimoiy hayoti, orzu-umidlari va xalqona ideallarini aks ettiradi, insonni iymon-e'tiqodda butun, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-ruhiy tarbiyada komil bo'lishga undaydi.

Xalqona qadriyatlar va urf-odatlarimiz islomiy qadriyatlar bilan hamohang.

Ularda vatanparvarlik, halollik, elni e'zozlash, adolat, mehnatsevarlik, kamtarlik, mardlik, hushyorlik, saxiylik, mehmondo'stlik, vafodorlik, sabr-qanoat kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Adovat, kibr-havo, hasad, fitna-fasod, dilozorlik, xudbinlik, tekinxo'rlik, ilmsizlik, nodonlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi.


Har bir urf-odat, udum, an'analar yuqorida ulug'langan fazilatlarni yosh avlod tarbiyasiga singdirish, qoralangan illatlardan yiroqlashtirish yoki forig' qilish kabi o'z maqsad-vazifasiga, o'z yo'nalishiga ega. Masalan, odamiylik, do'st-birodarlik, bir-biriga ixtiyoriy yordam, ahillik va o'zaro hamkorlikning yorqin namunasi bo'lган hashar hozirgi kungacha yetib kelgan go'zal odatlarimizdan biridir. Hashar o'zbeklarda jamoat yoki shaxs ishiga ixtiyoriy yordam berish, ko'pchilikning bir maqsadda, bir yoqadan bosh chiqarib, tezkorlik bilan bajarilishi zarur bo'lган ishlarni bajarishda qo'llangan. Bu

¹⁰⁴ Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T. O'zbekiston, 1994, 113-b.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

haqida yurtboshimiz shunday deydilar: —Xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlаримиз va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘slik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma‘naviy hayotimizning uzviy qismiga aylangan hashar odati istiqlol davrida yangicha ma‘no-mazmunga ega bo‘lib, umummilliy an‘ana tusini olgani barchamizni mamnun etadi. Har yili Navro‘z va Mustaqillik bayramlari arafasida o‘tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdig‘idir. ...Bu esa, hech shubhasiz, jamiyat tafakkurining yangilanishiga kuchli ta‘sir qilmoqda.||¹⁰⁵

¹⁰⁶ Demak, aytish joizki, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy taraqqiyotida qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ham yosh avlod tarbiyasida xalq an‘analari, urf-odatlari, udumlari, marosimlarining mohiyatini keng tushuntirishimiz darkor.



¹⁰⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-96-bet.

¹⁰⁶ Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-100-bet.

